BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA MATNLI MASALALARNI O‘RGATISHDA KLASTER METODIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Xolmamatova Madina Chori qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(Boshlang‘ich ta’lim) 2-bosqich magistranti

e-mail: madinaxolmamatova94@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matnli masalani yechish,uning bola ahamiyatidagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Klaster metodi haqida tushuncha va matnli masalani yechishda klaster metodidan foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar:tanqidiy fikrlash,motivatsiya,masalani yechish,amaliy ko‘nikma,tizimli fikrlash,masalaning asosiy qismlari

Аннотация: В данной статье говорится о решении текстовой задачи для учащихся начальных классов и ее значении для детей. Показано понимание кластерного метода и способы использования кластерного метода при решении текстовых задач.

Ключевые слова: критическое мышление, мотивация, решение проблем, практические навыки, системное мышление, основные части проблемы.

KIRISH

Barchamizga ma’lumki, bugungi zamon taraqqiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bizning mamlakatimizda ham yangicha islohotlar avj olmoqda. Hamma sohada tubdan o‘zgarishlar qilinmoqda. Shu bilan birga, eng avvalo ta’lim sohasiga bo‘lgan e’tibor ham kuchayib bormoqda ayniqsa, hamma fanlar qatori matematika faniga va u fanni qay yo‘sinda o‘qitishga, darsga qanday yondashish kerakligiga, o‘quvchilarni matematika faniga bolgan qiziqishi va ishtiyoqini oshirishga, matematika darslarini sifatli tashkil etishga bo‘lgan e’tibor kundan kunga muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Chunki matematika hamma fanlarga asos hisoblanadi. Matematikadan chuqur bilimga ega b o‘lgan inson hayotda qoqilmaydi va òz òrniga ega bòladi. Boshlang‘ich sinflarda matematika faniga ijodiy yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Matematika fani boshlang‘ich sinflarda juda muhim o‘ringa ega.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondashish, asosli xulosa chiqara olish har bir o‘qituvchi oldidagi muhim vazifalardan biri. Bu vazifalarni amalga oshirishda matnli masalalarning o‘rni katta. Boshlang‘ich sinf matematika kursida qiziqarli mantiqiy topshiriqlardan

foydalanilsa, va bu topshiriqlarni bajarishda interfaol metodlardan foydalanilsa dars sifatini yanada yaxshilanishiga sabab bo‘ladi.Bu o‘quvchilarning (hatto past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni ham) darsga bo‘lgan qiziqishlari va faolligini oshiradi.

Asosiy qism

Masalani hal qilish qiziqarli, biroz g‘ayrioddiy ish, ya'ni aqliy mehnatdir. Har qanday ishga o‘rganish uchun ishlash kerak bo‘lgan ma’lumotni, ushbu ishni bajarish uchun kerak bo‘ladigan vositalarni yaxshilab o‘rganish zarur. Demak, masalalarni yechishni o‘rganish uchun ularning mazmun mohiyatini tushunish, ular qanday tuzilganligini o‘rganish, ular qanday asosiy qismlardan iboratligini va masalalarni hal qilish uchun qanday vositalar mavjudligini anglash kerak.

“Matnli masalani qanday yechish kerak”

Masalani o‘qing va tasavvur qiling;

Uning mazmunini tushuning;

Masala shartini va savolini aniqlang;

Qisqa masala shartini yozing yoki chizmasini chizing;

O‘ylab ko‘ring, masalaning hamma savoliga javob topib bo‘ladimi?

Yo‘q bo‘lsa nima uchun?

Nimani dastlab aniqlab, keyin qaysini aniqlash kerak!

Masala yechish rejasini tuzing!

Masalani yeching!

Yechimni tekshiring va javobini yozing.[2.]

Masalani yechish- bu masala shartida berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog‘lanishni ochib berishva bu asosida arifmetik amallarni tanlash, keyin esa ularni bajarish hamda masala savoliga javob berishdir.

O‘quvchilarning mustaqil mantiqiy firlash faoliyatlarini rivojlantirishda kerakli metodlardan o‘z o‘rnida foydalanish juda muhim.

O‘quv jarayonini nima samaraliroq qilishi mumkin? Bu bolalarga ma’lumotni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradimi? Bunga erishishning ajoyib usullaridan biri bu darslarda klaster metodidan foydalanishdir. Bu nima? U o‘quvchi uchun ko‘rgazmali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich maktabda “klaster” texnikasi o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini rag‘batlantiradigan tanqidiy fikrlash texnologiyasi usullaridan biridir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridalarida tanqidiy fikrlash usullaridan foydalanish juda muhimdir. Bu juda oddiy va hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydigandek

tuyulishi mumkin, ammo tanqidiy fikrlash usullarini qo‘llash uchun ham o‘qituvchi, ham bolalarni tayyorlash kerak. Shunga qaramay, tanqidiy fikrlash usullaridan foydalanish quyidagilarga imkon berishini ta'kidlash lozim:

- maktab o‘quvchilarining bilim olishga qiziqishini oshirish;
- motivatsiyani kengaytirish;
- bolalarning yangi ma'lumotlarni idrok etish samaradorligini oshirish;
- olingan bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirish;
- muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish.

Bularning barchasi fikrlash, xulosa chiqarish, har qanday vaziyatdan chiqish yo‘lini topish, qo‘yilgan muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan komil shaxsni shakllantirishga yordam beradi.

Klaster metodi - pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u ta’lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar yuzasidan erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq ob’ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta’lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.[3].

Klaster - bu “tutam”, “bog‘lam” degan ma’noni anglatib, u ma’lum bir mavzu bo‘yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklidir. Bunda, o‘rganilayotgan mavzu yoki obyekt to‘g‘risidagi asosiy tushunchalarga tayangan holda ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan g‘oyalarni yig‘iladi. Ta’lim jarayonida klasterlardan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish ta’lim oluvchilarda bilimlami faol egallashga bo‘lgan intilishlarini oshiradi va ulaming o‘rganilayotgan yangi nazariy yoki amaliy materiallar bo‘yicha egallagan bilimlarini erkin namoyon etishga yordam beradi. Matematika fanini o‘qitish jarayonida “Klaster” metodidan foydalanish ta’lim oluvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim o‘rin tutib, u ta’lim oluvchilarga o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha erkin va ochiq fikr yuritishiga yordam beradi.[4].

Ushbu usul kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini o‘qitishda, shuningdek, bolalarda vizual va xayoliy fikrlashning ustunligi bilan bog‘liq. Ma’lumotlar ularga klaster - diagramma ko‘rinishida taqdim etilsa, yodlash darajasi ancha yuqori bo‘ladi, shuningdek, bolalar taklif qilingan mavzular bo‘yicha mustaqil ravishda klasterlar tuzganda, ular muhim fikrlarni xotirada saqlab qoladilar: asosiy ta’riflar, shakllar , ayrim tushunchalarning turlari.


O‘quvchilarni tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalangan holda rivojlantirishda rivojlanishning uchta asosiy tarkibiy qismi, bosqichlarini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi bosqichda muammoning paydo bo‘lishi sodir bo‘ladi, o‘qituvchi barcha bolalarni ishga jalb qiladi, ular mavzu bo‘yicha allaqachon ega bo‘lgan bilimlarini takrorlaydi, assotsiativ qator hosil qiladi va javob berilishi kerak bo‘lgan savollarni beradi.

Ikkinchi bosqich – tushunish bosqichida o‘quvchilar axborot bilan ishlaydilar, matnlarni o‘qiydilar. Ular rasmlarga qaraydilar, misol va masalalarni yechadilar, shu jarayonda olingan faktlarni tahlil qiladilar. Mulohaza bosqichida bolalar mustaqil ravishda olgan bilimlarini tahlil qiladilar va xulosalar chiqaradilar. Bosqichlarga muvofiq klaster usuli ularning har qandayiga qo‘llanilishi mumkin.Qiyinchilik bosqichida bolalar taqdim etilgan barcha materiallarni tuza oladilar.

Uchinchi bosqichda maktab o‘quvchilaridan olingan bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish taklif etiladi.

Klaster usuli boshlang‘ich maktabdagi har qanday dars uchun qo‘llaniladi, u bir vaqtning o‘zida bir nechta bosqichlardan o‘tishi va bir bosqichdan ikkinchisiga silliq o‘tishi mumkin. Bu usuldan foydalanishda o`qituvchi ham guruh, ham juftlik, ham individual ish shakllaridan foydalanishi mumkin. Klaster usuli sinfda ham, uyda ham, uy vazifasini bajarishda ham qo‘llaniladi [5]. Boshlang‘ich sinf darslarida klaster usulidan foydalanishni ko‘rib chiqamiz. Masalan, matematika darsida masala va uning asosiy qismlari bilan tanishishda tegishli klaster tuzish maqsadga muvofiqdir.




“Klaster” metodi orqali bajarish tavsiya etiladi.

10 va unga karrali sonlardan foydalangan holda, matematik amallar yordamida natijasi 100 ga teng bo‘lgan ifodalar tuzamiz.

40+ 40 + 20 = 100

250:5+50=100





Xulosa

O‘qitishning klaster usulida ochiqlik, oshkoralik va samaraga intilish metodlari birlamchi hisoblanadi. Unga ko‘ra, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasida hamkorlik asoslari birlamchi bo‘ladi. O‘qituvchi nazariy va amaliy ko‘nikmalarni berish bilan cheklanmaydi, aksincha, o‘quvchining amaliy o‘zlashtirganlik darajasini o‘rganib boradi.

Klaster metodining afzallik tomoni shundaki, u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifani o‘taydi. Bu usul bilan talaba va o‘quvchilarning bilimlarini egallash mahorati, mantiqiy va tizimli fikrlash ko`nikmasi rivojlanadi. Darslarda klasterdan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega:

jamoaning barcha ishtirokchilarini o‘quv jarayoniga jalb qiladi, ular uchun bu qiziqarli;

o‘quvchilar faol va ochiq bo‘lishadi, chunki ular xato qilishdan, noto‘g‘ri fikr bildirishdan qo‘rqmaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matnli masalalarni yechish metodikasi”. Merajova Sh.B., Merajov N.I., Xoliqova M.Q.. “Durdona” nashriyoti. Buxoro-2022 5-bet
2. Boshlang‘ich sinflarda masala yechishga o‘rgatish metodikasi‘ Xudoynazarov Ye. M Qo‘chqorov D.I. Darslik. ‘Bokmany Print‘ Toshkent-2022 16-17-bet
3. Jumayeva Hulkarxon Muhammadjonovna Matematika o‘qitish metodikasi (Amaliy mashg‘ulotlar 1-modul) O‘quv qo‘llanma Termiz 2023 77-bet
4. M.Barakayev, M.Tojiyev, D.Yunusova, K.Mamadaliyev Matematika o’qitish texnologiyalari va loyihalash Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2020 45-bet
5. https://moluch.ru/archive/137/38305/